

## **Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi**

*2025- yil yanvar-oktyabr dastlabki ma'lumot*

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


### **I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- noyabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 716 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 27 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 689 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-oktyabr oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 33 605,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,1 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 4 438,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 94,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 29 166,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 12,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 629,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 9,3 %) tashkil etdi.

#### **Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)**



**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi  
(ulushi foizda)**




**II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- noyabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 215 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 37 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 178 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-oktyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 45 691,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,5 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 37 700,8 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 11,1 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 82,5 % ni tashkil qildi.


**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)**





Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Quyi Chirchiq (22,7 m.), Zangiota (9,0 m ) tumanlari hamda Chirchiq (4,4 m.) shahrida kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**




**III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI**

2025- yil 1- noyabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 744 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 733 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-oktyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 13 373,5 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 15,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 77,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**



**IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

|                                                                                 |                                                                  |                                                                                   |
|---------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Chop etishga masul:</b><br>Xizmatlar va savdo sohasi<br>statistikasi bo'limi | <b>Ijrochi:</b> M.Mirzokirov<br>Tel: (+99871)203-45-00<br>(4541) | <b>Manzil:</b> Toshkent shahar Mirobod<br>tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-<br>uy |
|---------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|